

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 158 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJI TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatoev Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
STRUCTURE-PROPERTY RELATIONSHIP OF ORGANOSILICON MATERIALS: EVALUATION BASED ON THERMOGRAVIMETRIC ANALYSIS	116
Tosheva Dilfuza Farxodovna, Siddikov Ikrom Iminjonovich, Rakhimov Firuz Fazliddinovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AVTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARININING INNOVATSION SALOHIVATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	



TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI

Ismailov Akmal Maxsudovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

"Menejment" kafedrası mudiri

Email: akmal-0278@mail.ru

Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi

"O'zbekiston temiryo'llari" AJ yetakchi buxgalter

Email: abilqosimovashahlo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport tizimi korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash yo'nalishlari o'rganiladi. Tadqiqotda innovatsion faollik darajasini aniqlash, texnologik yangiliklarni joriy etish ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda korxonalar faoliyatining innovatsion rivojlanishdagi rolini baholashga alohida e'tibor qaratilgan. Natijalar transport sektorida innovatsion boshqaruv strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: transport tizimi, innovatsion salohiyat, baholash yo'nalishlari, texnologik yangiliklar, innovatsion boshqaruv.

Abstract. This article examines the directions for assessing the innovative potential of transport system enterprises. It focuses on evaluating the level of innovation activity, analyzing technological implementation indicators, and assessing the role of enterprises in fostering innovation-driven growth. The results contribute to improving innovation management strategies in the transport sector.

Key words: transport system, innovative potential, assessment directions, technological innovations, innovation management.

Аннотация. В статье рассматриваются направления оценки инновационного потенциала предприятий транспортной системы. Особое внимание уделено анализу уровня инновационной активности, внедрению технологических новшеств и оценке роли предприятий в инновационном развитии отрасли. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования инновационного управления в транспортном секторе.

Ключевые слова: транспортная система, инновационный потенциал, направления оценки, технологические новшества, инновационное управление.

KIRISH

Globalashuv va integratsiya jarayonlari, raqobat qoidalarining keskinlashuvi, geosiyosiy o'zgarishlar hamda jahon iqtisodiy makonida ishlab chiqarish va texnologik kuchlarning qayta taqsimlanishi barcha ishtirokchilar oldiga o'z pozitsiyalarini saqlab qolish va rivojlantirish zaruratini qo'ymoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari, shu jumladan korxonalarining innovatsion faoliyatini ushbu taraqqiyotning asosiy omili sifatida baholash, ilm-fan, ishlab chiqarish, ta'lim va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni shakllantirish korxonalarining iqtisodiy hamda innovatsion rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois innovatsion salohiyat samaradorligini oshirishning fundamental va amaliy jihatlari o'rganish katta e'tibor qaratilayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shunga qaramay, xo'jalik yurituvchi korxonalarining innovatsion faoliyati hamda innovatsion salohiyatni boshqarish bilan bog'liq masalalar hali ham munozarali bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, YE.A. Lapteva [1] ta'rifiga ko'ra, innovatsion jarayonlar iqtisodiy tizimning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxonaning modernizatsiya va yangilanish qobiliyatini ochib beruvchi, texnik yetakchilik va ustunligini belgilovchi innovatsion salohiyatdir. Innovatsiya nazariyasida uning tarkibiy qismlari sifatida uch tur ajratiladi: umumiy innovatsion salohiyat, resurs, ishlab chiqarish va ichki salohiyat — iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi [2].



Mamlakatimizda innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-sonli "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan boshlangan bo'lib, unda "ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga nou-xau elementlarini keng joriy etish, bu borada ilmiy tashkilotlar hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasidagi yaqin hamkorlik mamlakatning jadal innovatsion rivojlanishidagi eng muhim omil hisoblanadi" deb qayd etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiya nazariyasining asoschisi avstriyalik olim Y. Shumpeter hisoblanadi. 1911-yilda u radikal texnologik o'zgarishlarni rag'batlantirish iqtisodiy tanazzulni yengish uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ilmiy asoslab bergan. Keyinchalik, XX asrning 30-yillarida u "innovatsiya" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi.

MDH olimlaridan V. A. Balukova, I. A. Sadchikov va V. Ye. Somovlar [3] innovatsiyani ixtirodan foydalanish jarayoni sifatida izohlaydilar. I. T. Balabanov esa innovatsiya tushunchasini natija sifatida o'rganadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsiyaning paydo bo'lish sabablari borasida olimlar turlicha yondashuvlarga ega [4].

Mahalliy olim I. Abdurahmonovning fikricha, "Ilm mablag'ga aylansa, ana shu innovatsiya" degan ta'rif dolzarb hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar Sh. N. Zaynutdinov, D. Shodiyeva, I. S. Xotamov, M. Rasulov, A. E. Norov va G. P. G'ulomovlar [5] o'z ilmiy izlanishlarida sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish yo'lida inson omili, kadrlar tayyorgarligi va innovatsion ishlanmalardan foydalanishga oid yondashuvlarni ilgari surganlar.

Innovatsion rivojlanish nazariyasini tahlil etish turli ilmiy maktablarning rivojlanishiga qo'shgan hissasini baholash imkonini beradi. Dastlabki bosqichda innovatsiyalar nazariyasining fundamental asoslari shakllanib, ularning mehnat unumdorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan (merkantilistlar — A. Monkretyen, T. Men, A. L. Ordin-Nashekin, I. T. Pososhkov va boshqalar [6]; fiziokratlar — F. Kene, A. Tyurgo, S. Bodo, I. Tyunen va boshqalar [7]). Keyingi bosqichda innovatsiyalarni iqtisodiy o'sish omili sifatida talqin etish, bilimning ahamiyatini anglash va mahsulot yaratish jarayonida davlatning rolini belgilash kabi g'oyalar ilgari surilgan (klassik maktab: R. Kantilyon, A. Smit, D. Rikardo va boshqalar [8]).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi transport tizimi korxonalarining innovatsion salohiyatini baholashda statistik ma'lumotlar, soha hisobotlari va korxona ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Transport vazirligi va tegishli tarmoq korxonalari hisobotlaridan olingan bo'lib, ularning tahlili korrelyatsion-regression va komparativ usullar orqali bajarilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion rivojlanishning zamonaviy nazariyasi "iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya va tadbirkorlik" nazariyalarining sintezi, tadqiqot obyektni har tomonlama tahlil qilish, metodologik va uslubiy yondashuvlarni diversifikatsiya qilish orqali takomillashtirish bormoqda [9]. Innovatsiyalarning paydo bo'lish manbalari va sabablarini aniqlash, bu jarayonda davlat hamda institutlarning rolini belgilovchi nazariyalar shakllanmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi. Kimyo, energetika, biologiya, ta'lim, tibbiyot, elektronika, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbekistonlik olimlar iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi yo'nalishida faol ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. A. Sh. Bekmurodov, B. B. Berkinov, N. Q. Yuldashev, B. K. G'oyibnazarov va boshqalar shular jumlasidandir. Sh. N. Zaynutdinov hamda R. I. Nurimbetovlarning qurilish materiallari sanoatining innovatsion rivojlanishini o'rgangan tadqiqotlari alohida e'tiborga molikdir [10], [11], [12].

Shunday qilib, innovatsion salohiyatni aniqlashda resursli yondashuv tarafdorlari S. N. Yashin, N. A. Murashova va S. D. Karlinalar [14] mavjud resurslar salohiyatini, jumladan kadrlar, texnologik, moliyaviy hamda ilmiy-tarkibiy qismlarni umumlashtirish zarur deb hisoblaydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, korxonaning innovatsion salohiyati innovatsiyalarni belgilovchi moddiy va nomoddiy resurslardan iborat deb baholanadi. Bunday yondashuv "innovatsiya" atamasining ilk paydo bo'lgan davrlarida ancha keng tarqalgan edi. Mazkur yondashuv asosida korxonaning innovatsion salohiyati 1-rasmda keltirilgan salohiyat turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu salohiyat turlari o'z navbatida kadrlar salohiyati, texnologik salohiyat, moliyaviy salohiyat va ilmiy salohiyatdan iborat. Bizning fikrimizcha, bunday yondashuv korxonadagi innovatsion rivojlanganlik holatini,


ya'ni innovatsion salohiyat darajasini baholash imkonini beradi. Biroq u korxonaning innovatsion rivojlanganlik darajasini to'liq aks ettira olmaydi. Shu bois bu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zarur (1-rasm).



1-rasm. Korxonadagi mavjud resurslari bo'yicha innovatsion salohiyat tarkibi [13]

Korxonaning innovatsion salohiyatini aniqlashda navbatdagi yondashuv sifatida shuni aytish mumkinki, ko'p miqdordagi zaxiralarga ega bo'lib, ammo innovatsion salohiyati past bo'lgan korxonalar mavjud. Shuningdek, aksincha, innovatsion salohiyati yuqori, biroq mavjud zaxiralari cheklangan ishlab chiqarish korxonalari ham mavjud. Mazkur yondashuv mualliflari V. L. Gorbunov va P. G. Matveyevlar korxonaning innovatsion salohiyatini quyidagicha tavsiflaydilar (2-rasm). Ularning fikricha, korxonaning innovatsion salohiyati — bu korxonaning innovatsion faoliyatini belgilovchi ko'rsatkichlar majmuasidir. Bunda innovatsion faoliyat olingan patentlar, nomoddiy aktivlar, intellektual mulk obyektlari, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda intellektual salohiyatni o'z ichiga oladi.

Biroq bizningcha, bunday yondashuv bir qator kamchiliklarga ega. Eng avvalo, u korxonaning innovatsion salohiyatini faqat mavjud holat asosida baholaydi, bu esa innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini yetarlicha aks ettirmaydi (2-rasm).




2-rasm. Korxonaning innovatsion salohiyat tarkibiga natijaviylik bo'yicha yondashuv [15]

Iqtisodchi olim B. Lisinning [16] fikricha, innovatsion salohiyat maqsadlarga erishish uchun harakatga keltirilishi mumkin bo'lgan to'plangan resurslarning foydalanilmagan, kam foydalanilgan yoki yashirin imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Bizning nuqtayi nazarimizcha, bunday ta'rif innovatsion salohiyatning mohiyati va tuzilishini anglashda ma'lum darajada noaniqlik keltirib chiqaradi.

Korxonaning innovatsion salohiyatini natijaviylik bo'yicha aniqlash yondashuvi tarafdorlari — J. A. Mingaleva va I. I. Platinyuklar [17] — korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini innovatsion salohiyat natijasi sifatida talqin qiladilar. Biroq shuni ta'kidlash joizki, korxonaning innovatsion faoliyati natijalari har doim ham uning innovatsion salohiyat darajasini to'liq ifodalab bera olmaydi.

Navbatdagi yondashuv korxonaning innovatsion salohiyatini ichki imkoniyatlarga asoslangan holda shakllantirishga tayanadi. Ushbu yondashuv tarafdorlari A. N. Plotnikov va S. N. Litoninskiylar [18] bo'lib, ular fikricha, korxonaning innovatsion salohiyati uning mohiyatini, innovatsion faoliyatni kengaytirish imkoniyatini ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra, innovatsion salohiyat nafaqat ma'lum zaxiralar yoki erishilgan natijalar yig'indisi sifatida, balki jarayonlar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiatini ham aks ettiradi (3-rasm).



3-rasm. Korxonaning innovatsion salohiyati tarkibini ichki imkoniyatlar bo'yicha shakllantirish yondashuvi [19]

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, innovatsion salohiyat, jumladan korxonaning innovatsion salohiyati kategoriyasiga turli olimlar tomonidan berilgan yondashuvlar biz tomonidan tahlil qilindi. Bugungi kunda innovatsion salohiyatni aniqlashda turli ta'riflar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, innovatsion salohiyat takror ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun umumiy imkoniyatlarni ta'minlaydi hamda iqtisodiy tizimning mohiyatini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi [20]. G'arb iqtisodchi olimlari innovatsiyalarni boshqarish masalasida innovatsion salohiyatni baholash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, innovatsion salohiyat obyekt boshqaruvidagi muammolarni hal etish jarayonida tashqi muhit ta'sirini tahlil qilishdan tortib, yakuniy natijalarni baholashgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi [21].

Biroq shuni qayd etish kerakki, hozirgi kunga kelib ham korxonaning innovatsion salohiyatini boshqarishdagi asosiy muammolardan biri — korxona iqtisodiy salohiyatini baholashda umumiy qabul qilingan yagona yondashuvning mavjud emasligidir. Shunga qaramay, G'arb iqtisodchilari innovatsion salohiyatni boshqarishning muhim bosqichi sifatida uni baholashda uch guruh yondashuvni taklif etadilar. Ularning fikricha, innovatsion salohiyatni miqdoriy, sifat va aralash ko'rsatkichlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir [22].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim iqtisodchi olimlar korxonaning innovatsion salohiyatiga barcha mavjud salohiyatlar yig'indisi sifatida yondashadilar. Jumladan, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va investitsion salohiyatlar majmuasi sifatida qarovchi tadqiqotchilar mavjud. Biroq biz ushbu paragrafda korxonaning innovatsion salohiyatini alohida mustaqil kategoriya sifatida talqin etuvchi muallif yondashuvini keltirdik. Mazkur yo'nalishda xorijiy olimlar bilan bir qatorda mamlakatimiz olimlari ham sezilarli ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Misol tariqasida mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan E. B. Iskandarov [23] tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvni keltirish mumkin. Unga ko'ra, korxonaning innovatsion salohiyati faqat ilmiy-tadqiqot salohiyatini emas, balki yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasini, texnologik salohiyatni, innovatsiyalarning natijaviyligini, ya'ni innovatsion faoliyatdan olinayotgan iqtisodiy foydani, shuningdek, har bir xodim hissasiga to'g'ri keluvchi innovatsion mahsulot miqdorini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri salohiyati kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlash tavsiya etiladi.

Bizning fikrimizcha ham, korxonaning innovatsion salohiyatini baholashda bunday yondashuv eng maqbul variantlardan biridir. U korxonadagi mavjud innovatsion faoliyat darajasini aniqlash, o'lchash hamda uni alohida ko'rsatkich sifatida baholash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, biz korxonaning iqtisodiy salohiyati tushunchasining nazariy va iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, ushbu yondashuvga muvofiq ravishda ehtimoliy innovatsion salohiyat darajasini aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, korxonaning innovatsion salohiyati tarkibiga uning ilmiy-tadqiqot, texnikaviy, innovatsiyalar natijaviyligi hamda innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri salohiyatlari kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Yuqori rahbariyat tomonidan barcha bo'limlar va bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, xodimlarga samarali ta'sir o'tkazish va innovatsion faoliyat natijalarini maksimal darajada oshirish korxona uchun strategik ahamiyatga ega. Biroq korxonaning texnikaviy salohiyati ham talab darajasiga javob bergan taqdirdagina korxona o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana oladi. Gap birinchi navbatda korxonaning innovatsiyalarga texnik tayyorgarligi, ya'ni asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy fondlarning qoldiq qiymati, yangilanish koeffitsiyenti, innovatsiyalarga qilingan xarajatlar koeffitsiyenti, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarga ajratilgan mablag'lar koeffitsiyenti haqida bormoqda.

Korxonaning innovatsiyalar natijaviyligi salohiyati deganda, innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi hamda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarda innovatsion tarkibning ulushi tushuniladi. Innovatsiyalarning turmush darajasiga ta'siri salohiyati esa har bir xodimga to'g'ri keluvchi innovatsion tovar va xizmatlar ulushini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, korxonaning iqtisodiy salohiyatini tashkil etuvchi



innovatsion salohiyat boshqa salohiyat turlaridan farqli o'laroq, aynan innovatsion faoliyat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirish zarurati keng ko'lamli texnologik va tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishni, innovatsion faollikni oshirish masalalarini hal etishni taqozo etadi. Milliy iqtisodiyot tarmoqlari va komplekslarining o'sish drayveri bo'lgan korxonalar innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish orqali barqaror raqobat ustunligini shakllantiradilar. Shu nuqtayi nazardan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion rivojlanishini tahlil qilish innovatsion salohiyatni oshirishga ta'sir etuvchi omillarni, shuningdek, innovatsion o'sishni ta'minlaydigan resurslarni chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qurilish korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish — bu innovatsion salohiyat tarkibidagi barcha komponentlarni samarali rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladigan uzluksiz jarayondir. O'z navbatida, bunday boshqaruv tizimi innovatsion salohiyat turlarining o'zaro ta'siri qanchalik to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilganiga bevosita bog'liqdir. Qurilish korxonalari faoliyatida innovatsion jarayonlarni uzluksiz tashkil etish, yangi g'oya va takliflarni izlab topish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etish korxonaning innovatsion salohiyatini oshirishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лаптева Е.А. Проблемы оценки инновационного потенциала промышленных предприятий // Управление экономическими системами. — 2014. — № 8.
2. Гилева Т.А., Низаев А.Р. Инновационный потенциал предприятия: структура, оценка, формирование // Актуальные вопросы управления в социальных и экономических системах: Межвузовский сборник научных трудов. Ч. II. — Уфа, 2006. — С. 213–218.
3. Балуква В.А., Садчиков И.А., Сомов В.Е. Управление инновационными процессами на предприятиях химической и нефтехимической промышленности. — СПб.: СПбГИЭУ, 2003. — 147 с.
4. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. — СПб.: Питер, 2001. — 304 с.
5. Зайнуддинов Ш.Н., Расулов Н.М. Инновацион менеджмент. — Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. — 540 б.; Шодиева Д. Миллий иқтисодийётнинг инновацион ривожланишини инвестициялашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. (PhD) диссертация автореф. — Т.: 2020. — 58 б.
6. Расулов Н.М. Корпоратив тузилмаларда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш услубийтини такомиллаштириш: (DSc) диссертация автореф. — Т.: 2021. — 81 б.; Норов А.Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштиришнинг назарий ва услубий асослари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, 2020 й.; Фуломова Г.П. Инновацион фаолият инфратузилмасини шакллантириш ишлаб чиқаришни модернизациялаш омили сифатида // Экономика и финансы (Узбекистан). — 2016. — №7.
7. Посошков И.Т. Книга о скудости и богатстве и другие сочинения / ред. и коммент. Б.Б. Кафенгауза; ред. изд-ва В.Р. Швейковская; худож. И.Ф. Рерберг. — М.: Изд-во АН СССР, 1951. — 411 с.
8. Кенз Ф., Тюрго А.Р.Ж., Дюпон де Немур П.С. Физиократы: избранные экономические произведения. — М.: Эксмо, 2008. — 1200 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов: в 2 т. — М.: Наука, 1993. — 570 с.
9. Теребова С.В. Роль трансфера и коммерциализации научных разработок в инновационном развитии территорий // Проблемы развития территорий. — 2015. — №6. — С. 7–28.
10. Зайнуддинов Ш., Нурибегов Р.И., Калмуратов Б.С. Инновационный путь развития экономики Узбекистана // «Biznes-Эксперт» Экономический научно-практический журнал. — Ташкент, 2018. — №8. — С. 92–95.
11. Зайнуддинов Ш.Н. Инновацион салоҳиятни ошириш стратегияси // “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. — №1. — Сентябрь, 2011.
12. Нурибегов Р.И., Калмуратов Б. Инновацион бошқариш стратегиясининг аҳамияти // Jamiyat va boshqaruv. — Т.: 2010. — №2. — Б. 73–75.
13. Лаптева Е.А. Классификация факторов развития инновационного потенциала предприятия // Экономика и предпринимательство. — 2013. — №9. — С. 495–498.
14. Яшин С.Н., Мурашова Н.А., Карлина С.Д. Совершенствование методики оценки уровня инновационной активности промышленных предприятий на основе анализа показателей статистической и финансовой отчетности // Финансы и кредит. — 2013. — №18 (546). — С. 11–20.
15. Горбунов В.Л., Матвеев П.Г. Методика оценки инновационного потенциала предприятия // Инновации. — 2002. — №8. — С. 67–69.
16. Лисин Б., Фридлянов Б. Инновационный потенциал как фактор развития (Межгосударственное социально-экономическое исследование) [Электронный ресурс]. — URL: <http://masters.donntu.edu.ua>
17. Мингалева Ж.А., Платынок И.И. Оценка уровня инновационного развития предприятия // Креативная экономика. — 2011. — №4 (52).
18. Плотников А.Н., Литонинский С.Н. Анализ методов оценки инновационного потенциала предприятия и направления их совершенствования // Проблемы современной экономики. — 2012. — №7. — С. 248–263.
19. Николаев А. Инновационное развитие и инновационная культура // Проблемы теории и практики управления. — 2011. — №2. — С. 57–63.



20. Фомченкова Л.В. Формирование и реализация инновационного потенциала промышленного предприятия // Российское предпринимательство. – 2005. – №8.
21. Westley F., Mintzberg H. Visionary leadership and strategic management // Strategic Management Journal. – 2005. – P. 32.
22. Oslo Manual. Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. 3rd edition. A Joint Publication of OECD and Eurostat. – OECD/EC, 2005. – 192 p.
23. Искандаров Э.Б. “Ўзбекистон қурилиш саноати корхоналарида барқарор инновацион ривожланишни таъминлаш” мавзусидаги 08.00.03 – Саноат иқтисодиёти ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2022. – 13 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>